



Gozzal SIDRASULIYEVA,

O'zMU tayanch doktoranti

E-mail: sidrasulieva@bk.ru

Altinay AYTURATOVA,

O'zMU tayanch doktoranti

Shaxnoza O'RINOVA,

TKTI Shahrizabz filiali stajyor-o'qituvchisi

Nuritdin KATTAYEV,

O'zMU professori, k.f.d

Hamdam AKBAROV,

O'zMU Fizikaviy kimyo kafedrasi mudiri, k.f.d., professor

O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti professori, k.f.d. I.Eshmetov taqrizi asosida

SYNTHESIS AND PHOTOCATALYTIC PROPERTIES OF O-g-C₃N₄/Fe₂O₃ COMPOSITE

Annotation

A new O-g-C₃N₄/Fe₂O₃ composite was synthesized by modifying oxygen-doped graphite-like carbon nitride (O-g-C₃N₄) obtained on the basis of melamine with Fe₂O₃. The physicochemical properties of the O-g-C₃N₄/Fe₂O₃ composite and the process of photocatalytic decomposition of methylene blue dye under the influence of visible light were investigated.

Key words: melamine, O-g-C₃N₄, Fe₂O₃, thermal polycondensation, methylene blue, photocatalytic destruction.

СИНТЕЗ И ФОТОКАТАЛИТИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА КОМПОЗИТА O-g-C₃N₄/Fe₂O₃

Аннотация

Полученный на основе меламина графитоподобный нитрид углерода (O-g-C₃N₄), допированный кислородом, модифицирован Fe₂O₃ и синтезирован новый композит O-g-C₃N₄/Fe₂O₃. Исследованы физико-химические свойства композита O-g-C₃N₄/Fe₂O₃ и процесс фотокаталитического разложения метиленового синего красителя под воздействием видимого света.

Ключевые слова: меламин, O-g-C₃N₄, Fe₂O₃, термическая поликонденсация, метиленовый синий, фотокаталитическая деструкция.

O-g-C₃N₄/Fe₂O₃ KOMPOZITI SINTEZI VA FOTOKATALITIK XOS SALARI

Annotatsiya

Melamin asosida olingan kislorod bilan dopirlangan grafitsimon uglerod nitridi (O-g-C₃N₄) ni Fe₂O₃ bilan modifikacyyalab, yangi O-g-C₃N₄/Fe₂O₃ kompoziti sintez qilindi. O-g-C₃N₄/Fe₂O₃ kompozitining fizik-kimyoviy xossalari va ko'rindigan nur ta'sirida metilen ko'k bo'yog'ini fotokatalitik parchalash jaryonasi tadqiq qilindi.

Kalit so'zlar: melamin, O-g-C₃N₄, Fe₂O₃, termik polikondensatsiya, metilen ko'ki, fotokatalitik destruksiya

Kirish. Dunyoda ultrabinafsha va ko'rindigan nur sohalarda faol bo'lgan grafitsimon uglerod nitridining turli xil allotropik shakllari organik ifloslantiruvchi moddalarning parchalash, vodorod ajratib olish, elektronika, CO₂ ni organik birikmalargacha fotokatalitik qaytarish va boshqa sohalarda istiqbolli "metallsiz" fotokatalizator sifatida keng qo'llanila boshladi.

Dunyoda uglerod nitridi g-C₃N₄ yarim o'tkazgichli grafitsimon fotokatalizatorlarning sintez sharoitlarini optimallashtirish, ta'qilangan soha kengligini kamaytirish, termik barqarorlik va fotokatalitik xossalarni yaixhilash hamda ular asosida yangi kompozitlarni yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoxda. Ko'rindigan nur ta'sirida yuzaga keladigan reaksiyalarni nano o'lchamli grafitsimon uglerod nitridi va ularning kompozitlari asosidagi fotokatalizatorlarning fizik-kimyoviy xossalarni strukturaviy loyihalash va o'rganish hozirgi kunda katta qiziqish uyg'otmoqda. Bu o'rinda mahalliy mahsulotlarning mamlakatimizda raqobatbardoshligini ta'minlovchi mahsulot va texnologiyalar zarur. Shuning uchun, ko'rindigan nur sohasida yaixhilangan xususiyatlarga va fotokatalitik faoliikkiga ega bo'lgan grafitsimon uglerod nitridining temir oksidi bilan kompozitini sintez qilib olish va ularning fizik-kimyoviy, fotokatalitik xususiyatlarini o'rganish dolzARB hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi. Bugungi kunda fotokatalitik faoliikkaga ega bo'lgan g-C₃N₄ asosida modifikatsiyalangan fotokatalizatorlarni olish muhim vazifalardan biri hisoblanadi [1]. g-C₃N₄ asosidagi fotokatalizatorlarning katalitik samaradorligini oshirish hamda g'ovaklar va fotogeneratsiyalangan elektronlarni ajratishni osonashtirish uchun bir qancha usullar qo'llanilmoqda. Bular sirasiga turli elementlarni dopirlash [2], metall oksidlari bilan kompozitlarni olish va konyugirlangan polimerlarni bilan modifikatsiyalash kabi usullar kiradi [3]. Shu bilan birgalikda, adabiyotlar tahvilining ko'rsatishicha, grafitsimon uglerod nitridining metall oksidlari bilan kompozitining ko'rinvuchan nur sohasida ancha yuqoriqoq fotokatalitik faoliikkiga egaligini ko'rsatdi [4].

MATERIALLAR VA USULLAR. O-g-C₃N₄/Fe₂O₃ kompoziti sintezi uchun dastlab oldindan tayyorlangan O-g-C₃N₄ kukun holatiga keltirildi [5]. So'ngra 0,006 mol/l konsentratsiyali FeCl₃ svuli eritmasi ning zaruriy miqdori 0,1 g O-g-C₃N₄ kukuni bilan aralashtrildi. Aralashmaga 10 daqiqa davomida ultratovush ta'sir ettirildi, so'ngra mufel pechida 323 K haroratda 10 soat davomida quritildi. Quritilgan aralashma kukun holatiga keltirildi va 30 minut davomida 500° haroratda maxsus avtoklavda kalsinatsiya qilindi.


Olingan namunani identifikasiyalash uchun zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Kompozitning Raman-spektri Bravo spektrofotometrida (Bruker, Germaniya) OPUS 8.1 dasturidan foydalangan holda tahlil qilindi.

Namunaning strukturaviy morfoloyig'asi Zeiss EVO MA skannerlovchi elektron mikroskop (Carl Zeiss, Germaniya) va elementlar tarkibi INCA Energy 300 (Oxford Instruments, Buyuk Britaniya) energiya dispersion spektrometri (EDX) yordamida amalga oshirildi.

Termogravimetrik (DTG) va differensial skannerlovchi kalorimetrik (DSC) tahlillar "Labsys evo SETARAM TG DTA DSK+1600" (Setaram Instruments, Germaniya) sinxron termik tahlil qurilmasi yordamida amalga oshirildi.


Metilen ko'kning miqdor tahlili METASH UV-5100 UV-VIS spektrofotometridan (Shanghai Metash Instruments, Xitoy) foydalaniildi.

Olingan natijalar muhokamasi. 1-rasmda keltirilgan O-g-C₃N₄/Fe₂O₃ kompozit fotokatalizatorining Raman-spektrida bir qator sohalardagi signallarni ko'rish mumkin. 3000-3100 sm⁻¹ oralijida ancha keng polosa mayjud bo'lib, u NH₂-NH, OH guruhlarining kollektiv simmetrik va antisimmetrik tebranishlari tufayli yuzaga keladi. 1628,69, 1484,54, 1310,40 va 1232,21 sm⁻¹ hududlardagi cho'qqilar geterotsiklik birikmlarning CN guruhiga tegishli tebranishlariga xosdir. 978,36 va 767,01 sm⁻¹ dagi cho'qqilar triazin halqasining egilish tebranishlariga to'g'ri keladi va 558,91 va 475,77 sm⁻¹ sohalardagi tebranishlarni Fe-O ta'sirlashuvlar bilan izohlanadi.





1-rasm. O-g-C₃N₄/Fe₂O₃ kompozit fotokatalizatori Raman spektri

Tadqiqotlar doirasida sintez qilingan O-g-C₃N₄/Fe₂O₃ tarkibli kompozitning sirt morfologiq va strukturaviy tahlili uchun skanerlovchi elektron mikroskopiyasi va energiya dispersion spektroskopiyasi usullari qo'llanildi.



2-rasm. O-g-C₃N₄/Fe₂O₃ kompozit fotokatalizatorining mikrosuratları: x1000 (A) x4000(B)


O-g-C₃N₄/Fe₂O₃ kompozitning 1000 marta kattalashtirilgan mikrosuratida (2a-rasm) yuqori darajada aglomeratsiyalangan zarrachalar aniq ko'rindi. Bunda O-g-C₃N₄ va O-g-C₃N₄/Fe₂O₃ zarrachalari bir biriga o'xshash tartibisiz shakl va o'chamlarga egadir. 2b-rasm esa namunaning 4000 marta kattalashtirilgan mikrosurati bo'lib, unda kompozit zarrachalari notejis, g'adir –burur sirtga egaligi ko'riniib turibdi. Bundan tashqari kompozitning mikrosuratida kristall tuzilishi struktura borligi namoyon bo'ladi, bu esa O-g-C₃N₄ ning Fe₂O₃ bilan kompozit hosil qilganligidan dalolat beradi. Kompozit tarkibiga Fe₂O₃ kiritilishi O-g-C₃N₄ ning sirt morfologiyanini keskin o'zgartirishi tufayli uning fotokatalitik faolligini yanada oshirishga zamin yaratadi.



3-rasm. O-g-C₃N₄/Fe₂O₃ fotokatalizatorida elementlarning tarqalish xaritalari

Barcha elementlar kompozit tarkibida (azot, uglerod, kislorod, temir, xlor) bir tekisda tarqalgan.

Quyida 4-rasmda kompozitning element tahlili keltirildi. Unga ko'ra kompozit tarkibida 21,57% C, 66,14% N, 11,91% O, 0,26% Cl, 0,12% Fe elementlari borligi aniqlandi. Element tahlili natijasidan ma'lum bo'ladiki, kompozit tarkibiga kislorod elementi dopirlangan hamda temir oksidi bilan grafitsimon uglerod nitridi kompoziti hosil bo'lган. Kompozit tarkibida xlor atomiga xos signalning paydo bo'lгани esa dastlabki prekursor FeCl₃ dan kompozit tarkibiga dopirlanganini ko'rsatadi.




4-rasm. O-g-C₃N₄/Fe₂O₃ fotokatalizatorining energiya dispersion spektri



5-rasm. Kompozit fotokatalizatorning termogravimetric va skanerlovchi differentialsial kalorimetrik tahlili natijalari


Olingan kompozit birkimaning termik barqarorligini aniqlash maqsadida termogrammetriya va skanerlovchi differentialsial kalorimetriya tadqiqotlari o'tkazildi [6]. Tadqiqotlar 20°C dan 1000°C gacha bo'lган harorat oralig'ida amalga oshirildi. Dastlab 100-140°C oralig'ida 7,4 % massa yo'qotilgan. Ushbu yo'qotish namunaning namligi va kristallizatsion suvlarning chiqib ketishi bilan izohlanib, keng yelkali endoeffekt bilan birlgilikda sodir bo'ladi. Navbatdagi kichik massa yo'qotilishi (1,313%) 450-500°C oralig'ida kuzatilib, u sezilarsiz termik destruksiya bilan tushuntiriladi. 580-700°C oralig'idiagi o'zgarishlar metall oksidlarining hosil bo'lishi bilan bog'liq. Bu oraliqdagi parchalanishning miqdori 6,296%

ni tashkil etadi. 700°C haroratda namunaning organik qismining deyarli batamom termik parchalanishi hamda metall oksidining suyuqlanishi kuzatiladi. Termogrammada 700°C dan keyin deyarli o'zgarish kuzatilmaydi.



6-rasm. O-g-C₃N₄/Fe₂O₃ ishtirokida MK ning quyosh nuri ta'sirida fotodegradatsiyasining vaqtga bog'liqligi. C_{MK}=10 mg/l (a), 20 mg/l (b), 30 mg/l (c), m_{komp}=10 mg.

Kompositning quyosh nuri ta'siridagi fotokatalitik faoliqi turli konsentratsiyali metilen ko'kiga (MK) nisbatan aniqlandi (5-rasm). MK konsentratsiyaning o'zgarishi spektrofotometrik usulda aniqlandi [5].



7-rasm. O-g-C₃N₄/Fe₂O₃ ishtirokida MK ning quyosh nuri ta'sirida fotodegradatsiyasi kinetikasi. C_{MK}=10 mg/l (a), 20 mg/l (b), 30 mg/l (c), m_{komp}=10 mg.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, O-g-C₃N₄/Fe₂O₃ ishtirokida 60 daqqa davomida quyosh nuri ta'sirida 10, 20 va 30 mg/l konsentratsiyali MK ning destruksiyanish darajasi mos ravishda 65, 35% va 10% ni tashkil etadi.

Xulosa. Shunda qilib, melamin asosida olingan kislород bilan dopirlangan grafitsimon nitridi (O-g-C₃N₄) ni Fe₂O₃ bilan modifikatsiyalanib, yangi tarkibili O-g-C₃N₄/Fe₂O₃ kompoziti sintez qilindi. O-g-C₃N₄/Fe₂O₃ kompositining tarkibi va tuzilish xususiyatlari zamonaviy fizik-kimyoiy tadqiqot usullari yordamida tadqiq etildi. Yangi sintez qilingan kompozit fotokatalizator ko'rindigan yorug'lik nurida fotokatalitik faoliikkaga ekanligi ko'rsatib berildi.

ADABIYOTLAR

1. B.Dianna, H. Uresti, A.Juan, A.Martinez. Photocatalytic degradation of RhB with microwave-prepared PbMoO₄. J. Microw. Power Electromagn. Energy, 46(2012). p.163
2. Hong J., Xia X., Wang Y., Xu, R. Mesoporous carbon nitride with in situ sulfur doping for enhanced photocatalytic hydrogen evolution from water under visible light// J.Mater. Chem 2012, 22,15006-15012.
3. Ding Z.,Chen, X., Antonietti V., Wang X. Synthesis of Transition Metal Modified Carbon Nitride Polymers for Selective Hydrocarbon Oxidation// ChemSusChem 2011, 274-281.
4. А.Б. Богомолов, С.А.Кулаков, П.В. Зинин, В. А. Кутвицкий, М.Ф.Булатов. Получение флуоресцентных композитных материалов на основе графитоподобного нитрида углерода// Оптика и спектроскопия, 2020, том 128, вып. –С.910-913.
5. Sidrasuliyeva Г.Б., Kattayev Н.Т., Akbarov Х.И. Синтез наноразмерного графитоподобного нитрида углерода g-O-C₃N_x//Universum: химия и биология.–Москва, 2021.-№12 (90).-С.84-88.
6. Bakhromova I.A, Kattaev N.T., Akbarov Kh.I., Sidrasulieva G.B. Oxygen doped graphitic carbon nitride photocatalysts: physical-chemical and photocatalytic properties//Eur. Chem. Bull. 2023,12(3), p.1794-1804.